



UDK: 378.147:37.013

**Baxrom JOBBOROV,**

*O'zbekiston Milliy universiteti professori v.b, b.f.d*

*E-mail: bakhrom.jobborov@mail.ru*

**Nodir XURRAMOV,**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tayanch doktoranti*

**Ozodaxon KAMOLOVA**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tayanch doktoranti*

*O'zMU professori, b.f.d T.Raximova taqrizi asosida*

## THE ROLE OF PRACTICAL TRAINING CLASSES IN DEVELOPING PROFESSIONAL SKILLS OF STUDENTS IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Annotation

This study examines the effectiveness of practical training and internships in developing students' professional competencies in higher education institutions. Based on a mixed-methods approach, the findings revealed statistically significant differences between the experimental and control groups ( $p < 0.05$ ). The correlation analysis ( $r = 0.62$ ) indicated a positive relationship between internship participation and competency development.

**Key words:** Practical training, internship, professional competence, higher education, competency-based approach.

## РОЛЬ ПРАКТИЧЕСКИХ ЗАНЯТИЙ В ФОРМИРОВАНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ НАВЫКОВ СТУДЕНТОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ

Аннотация

Данное исследование направлено на определение эффективности практических занятий и стажировок в формировании профессиональных компетенций студентов высших учебных заведений. Результаты, полученные на основе смешанной методологии, показали статистически значимые различия между экспериментальной и контрольной группами ( $p < 0,05$ ). Корреляционный анализ ( $r = 0,62$ ) подтвердил наличие положительной связи между участием в практике и уровнем сформированности компетенций.

**Ключевые слова:** практические занятия, стажировка, профессиональная компетенция, высшее образование, компетентностный подход.

## OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TAHSIL OLAYOTGAN TALABALARNING KASBIY KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA AMALIY MASHG'ULOT DARSLARINING O'RNI

Аннотация

Mazkur tadqiqot oliy ta'lim muassasalarida amaliy mashg'ulot va stajirovkalarning talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi samaradorligini aniqlashga qaratilgan. Aralash metodologiya asosida o'tkazilgan tahlil natijalari eksperimental guruhda muammo yechish, qaror qabul qilish, kommunikatsiya va jamoada ishlash ko'rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan statistik jihatdan yuqori ekanini ko'rsatdi ( $p < 0,05$ ). Korrelyatsiya natijasi ( $r = 0,62$ ) amaliy ishtirok va kompetensiya rivoji o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjudligini tasdiqladi.

**Kalit so'zlar:** Amaliy mashg'ulot, stajirovka, kasbiy kompetensiya, oliy ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv.

**Kirish.** Amaliy mashg'ulot darslari oliy ta'lim muassasalarida nazariy bilimlarni real kasbiy faoliyat bilan integratsiyalash orqali talabada mustaqil fikrlash, muammo yechish va professional kompetensiyalarni shakllantiruvchi asosiy pedagogik mexanizm hisoblanadi.

Zamonaviy globallashtirish, raqamli transformatsiya va mehnat bozorida raqobatning kuchayishi sharoitida oliy ta'lim tizimi oldiga bitiruvchilarning nafaqat nazariy bilimga, balki yuqori darajadagi amaliy ko'nikma va malakalarga ega bo'lishini ta'minlash vazifasi qo'yilmoqda. Bugungi kunda ish beruvchilar tomonidan qo'yilayotgan talablar mazmunan o'zgarib, ular tayyor nazariy bilimga ega mutaxassisdan ko'ra, amaliy vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qila oladigan, kasbiy muammolarni tahlil etib, samarali yechim ishlab chiqaradigan kadrlarni afzal ko'rmoqda. Shu bois oliy ta'lim muassasalarida amaliy mashg'ulot darslarining ahamiyati va dolzarbligi keskin ortib bormoqda. Amaliy mashg'ulotlar ta'lim jarayonining tarkibiy qismi sifatida nazariy bilimlarni mustahkamlash, ularni real yoki modellashtirilgan kasbiy vaziyatlarda qo'llash

imkonini yaratadi. Nazariy ma'lumotni eslab qolish bilan cheklanish ko'pincha yuzaki o'zlashtirishga olib keladi, amaliy faoliyat esa bilimni ongli ravishda anglash, tahlil qilish va tatbiq etishni taqozo etadi. Natijada talaba o'z bilimini faol ishlatish jarayonida uni chuqurroq o'zlashtiradi hamda mustaqil fikrlash kompetensiyasi shakllanadi. Mavzuning dolzarbligi yana shundan iboratki, kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilayotgan zamonaviy ta'lim tizimida o'quv natijalari aniq kasbiy kompetensiyalar orqali ifodalanadi. Bunday kompetensiyalar esa faqat ma'ruza darslari orqali to'liq shakllanmaydi. Ular amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya ishlari, seminarlar, loyiha faoliyati, ishlab chiqarish amaliyoti va key-stadi metodlari orqali rivojlanadi. Amaliy mashg'ulotlar talabaga kasbiy vazifalarni bosqichma-bosqich bajarish, xatolar ustida ishlash va o'z faoliyatini refleksiya qilish imkonini beradi. Shuningdek, amaliy mashg'ulotlar talabalarda kommunikativ, jamoada ishlash, liderlik va vaqtni boshqarish kabi transversal (umumkasbiy) ko'nikmalarni ham shakllantiradi. Guruhii ishlarda ishtirok etish, muammoli

vaziyatlarni birgalikda hal etish jarayonida talaba o'z fikrini asoslash, boshqalar nuqtai nazarini hurmat qilish va samarali mulqot olib borish malakasiga ega bo'ladi. Bu esa zamonaviy kasbiy faoliyatning ajralmas tarkibiy qismidir. Mavzuning ilmiy jihatdan dolzarbligi ta'lim samaradorligini oshirish masalasi bilan ham chambarchas bog'liq. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, faol o'qitish metodlari asosida tashkil etilgan amaliy mashg'ulotlar talabalarning o'zlashtirish darajasini sezilarli oshiradi, ularning o'qishga bo'lgan ichki motivatsiyasini kuchaytiradi. Nazariy bilimning amaliy natijaga aylanishini ko'rgan talaba o'z kasbiga nisbatan mas'uliyat va qiziqishni yanada chuqurroq his etadi. Bundan tashqari, ishlash chiqarish va ta'lim integratsiyasini ta'minlash jarayonida amaliy mashg'ulotlar ko'prik vazifasini bajaradi. Oliy ta'lim muassasasi bilan real sektor o'rtasidagi hamkorlik, dual ta'lim elementlari, amaliy loyihalar va startap faoliyati aynan amaliy mashg'ulotlar orqali samarali yo'lga qo'yiladi. Bu esa bitiruvchilarning mehnat bozoriga moslashuvchanligini oshiradi hamda ularning ishga joylashish imkoniyatlarini kengaytiradi. Xulosa qilib aytganda, oliy ta'lim muassasalarida talabalarning kasbiy ko'nikmalarini shakllantirishda amaliy mashg'ulot darslari strategik ahamiyat kasb etadi. Ular nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlaydi, kompetensiyaviy yondashuvni ro'yobga chiqaradi, talabaning mustaqil va ijodiy fikrlashini rivojlantiradi hamda uni real kasbiy faoliyatga tayyorlaydi. Shu jihatdan mazkur mavzu bugungi ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida ilmiy-tadqiqot nuqtai nazaridan ham dolzarb hisoblanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Dunyoning ko'plab davlatlarini oliy ma'lim muassasalarida amaliy mashg'ulot darslarini tashkil qilishda turli muammolar va tavsiyalar berish yuzasidan ilmiy izlanish va tadqiqotlar olib borilgan. Jamladan, AQSh da olib borilgan so'nggi tadqiqotlarda talabalarning o'zi amaliy mashg'ulotlar va stajirovkalarni "kelajakdagi kasbiy faoliyat uchun eng muhim tajriba" deb baholayotgani aniqlangan. Maxsus belgilanadiki, to'lanadigan internships va undergraduate research (bakalavriat ilmiy tadqiqotlari) talabalarning ishga kirish imkoniyatlarini yaxshilaydi, ularni ish bozorida raqobatbardosh qiladi. Yuqori samaradorlik ko'rsatgan, ammo talabalar uchun eng qimmatli tajriba to'lanadigan va ilmiy tadqiqot bilan bog'langan amaliy mashg'ulotlar hisoblangan. Talabalar amaliy mashg'ulotlarni faqat ish topish vositasi sifatida emas, balki kasbiy identifikatsiya va professional tarmoq qurish vositasi deb ham baholamoqda [1]. Ayrim tadqiqotchilar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar AQSh dagi bitiruvchilarning boshlang'ich martabasiga amaliy mashg'ulotlarning ijobiy ta'sirini ko'rsatgan. Tadqiqotda ijodiy yondashuv, tarmoq tuzish imkoniyati, birinchi ish taklifi va boshlang'ich maoshning amaliy tajriba bilan bevosita bog'liqligi qayd etilgan. Shu orqali amaliy mashg'ulotlar nafaqat birinchi ishga kirish imkoniyatini oshiradi, balki keyingi kasbiy bosqichlarda ham barqaror istiqbolni yaratadi. Amerikalik tadqiqotchilar internships'ning qisqa muddatli foydasi bilan cheklanmay, kasbiy yo'nalish bo'yicha uzoq muddatli samaradorlikka ham ta'siri borligini aniqlagan [2]. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, amaliy mashg'ulotlarda qatnashgan talabalar muammo yechish, kommunikatsiya, jamoaviy ishlash, shuningdek, kasbiy maqsadlarni aniq belgilash kabi ko'nikmalarga sezilarli darajada erishganini bildirgan. Bu ko'nikmalar hozirgi mehnat 1-jadval.

bozori talabalariga to'liq mos keladi. Amaliy mashg'ulotlar talabalarni nafaqat texnik bilim bilan ta'minlabgina qolmay, balki ular uchun asosiy transversal (yumshoq) ko'nikmalarni ham rivojlantiradi [3]. Amaliy mashg'ulotlar talabalarning yumshoq ko'nikmalar (soft skills) - kommunikatsiya, teamwork (jamoada ishlash), moslashuvchanlik va madaniyatlararo hurmat - bo'yicha sezilarli o'sishni ko'rsatganini aniqladi. Ma'lumotlar PLS-SEM statistik modeli orqali tahlil qilingan, bu esa samaradorlikning statistik jihatdan ishonchli ekanini bildiradi. AQSh oliy ta'limida internships nafaqat mutaxassislikka oid texnik ko'nikmalarni, balki professional ijtimoiy kompetensiyalarni ham mustahkamlaydi [4]. So'nggi yig'ilgan milliy ma'lumotlarga ko'ra, Amerika kollej bitiruvchilari orasida internships yoki ilmiy tadqiqot tajribasi bo'lganlar ko'proq "kollej ularni ishga tayyorlab berdi" deb baholaydi. Tadqiqot bir nechta asosiy professional ko'nikmalar muammo yechish, qaror qabul qilish, tarmoq qurish va etnik diverslar bilan ishlash ustida sezilarli o'sish kuzatilganini ko'rsatdi. Praktikiy tajriba bitiruvchilarning o'zini ish bozoriga tayyor deb baholashiga bevosita ta'sir qiladi [5]. Internships ko'pincha "tajriba asosidagi o'qish" deb qaraladi va bu yondashuv talabalarni professional muhitga tayyorlash, ijtimoiy va ish ko'nikmalarini rivojlantirish hamda kariyer rejasini aniq belgilashda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqot 57 dan ortiq ilmiy maqolalarni tahlil qilgan meta summary bo'lib, bu yondashuvning umumiy pedagogik va mehnat bozoriga bo'lgan foydasini tasdiqlaydi. Real ish sharoitida amaliy tajriba yig'ish oliy ta'limning samaradorligini oshiradi va talaba bilimini mustahkamlaydi [6]. Talabalar internshipsni asosan ishtirok etishga qaratilgan holda tanlashadi, bu esa ularning yollanish imkoniyatini oshiradi ayniqsa tarmoq tuzish va professional aloqalarni kengaytirish yo'lida. Bir nechta tadqiqotlar internshipsni yuqori boshlang'ich maosh va martaba o'sishiga bog'laydi. Internships talabalarga nafaqat ko'nikma beradi, balki ularni ish bozorida tan olinadigan mutaxassisga aylantiradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqot oliy ta'lim muassasalarida amaliy mashg'ulot darslarining talabalar kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga ta'sirini aniqlashga qaratildi. Tadqiqot aralash (mixed-methods) yondashuv asosida tashkil etildi va miqdoriy hamda sifat usullari uyg'unlashtirildi. Tadqiqotda 3-4-bosqich talabalar ishtirok etdi. Ma'lumotlar so'rovnomaga va yarim tuzilgan intervyu orqali to'plandi. So'rovnomaga 5 ballik Likert shkalasi asosida ishlab chiqilib, muammo yechish, qaror qabul qilish, jamoada ishlash, kommunikatsiya va kasbiy maqsadlarni belgilash kabi kompetensiyalar baholandi. Olingan ma'lumotlar deskriptiv va qiyosiy statistik tahlil (t-test, korrelyatsiya) orqali qayta ishlandi. Sifat ma'lumotlari konten-tahlil usulida tahlil qilindi. Tadqiqot ishonchligi Cronbach's alpha koeffitsienti orqali tekshirildi.

**Tahlil va natijalar.** Tadqiqot davomida eksperimental guruhda kasbiy kompetensiyalar ko'rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan barcha pozitsiyalar bo'yicha statistik jihatdan ahamiyatli yuqori ekanligi aniqlandi. Tadqiqotda ishtirok etgan 120 nafar talabaning (60 nafardan har bir guruhda) natijalari qiyosiy tahlil qilindi. Eksperimental guruh amaliyot va stajirovka jarayonlarida faol ishtirok etgan talabalardan, nazorat guruhi esa an'anaviy ta'lim shaklida tahsil olgan talabalardan iborat bo'ldi.

Kompetensiyalar bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlar (5 ballik shkala)

No	Kompetensiya turi	Eksperimental guruh (M)	Nazorat guruhi (M)	Farq
1	Muammo yechish	4.32	3.71	+0.61
2	Qaror qabul qilish	4.18	3.65	+0.53
3	Jamoada ishlash	4.41	3.89	+0.52
4	Kommunikatsiya	4.36	3.82	+0.54

5	Kasbiy maqsadni belgilash	4.27	3.60	+0.67
---	---------------------------	------	------	-------

Yuqorida keltirilgan jadval ma'lumotlariga ko'ra, barcha kompetensiyalar bo'yicha eksperimental guruh ko'rsatkichlari yuqori ekanini kuzatildi. Eng katta farq kasbiy maqsadni belgilash (0.67 ball) va muammo yechish (0.61 ball) ko'nikmalarida qayd etildi. Likert shkalasi asosida baholangan 5 ballik barcha kompetensiyalar bo'yicha eksperimental guruh ko'rsatkichlari yuqori natija qayd etdi. Xususan, muammo yechish ( $M=4.32$ ) va kasbiy maqsadni belgilash ( $M=4.27$ ) kompetensiyalari bo'yicha farq sezilarli ekanligi kuzatildi. Nazorat guruhida mazkur ko'rsatkichlar mos ravishda 3.71 va 3.60 ni tashkil etdi. Eng katta farq kasbiy maqsadni belgilash ko'nikmasida (+0.67) 2-jadval.

Talabalarni bilim va ko'nikmalarini baholashda t-test natijalari

№	Kompetensiya	t-qiyamat	p-qiyamat
1	Muammo yechish	4.21	0.000
2	Qaror qabul qilish	3.98	0.001
3	Jamoadam ishlash	3.76	0.002
4	Kommunikatsiya	4.05	0.000
5	Kasbiy maqsadni belgilash	4.48	0.000

Barcha holatlarda  $p < 0.05$ , ya'ni guruhlar o'rtasidagi farq statistik jihatdan ishonchli hisoblanadi. Bunda t-test natijalari guruhlar o'rtasidagi farqlarning statistik jihatdan ishonchli ekanini ko'rsatadi ( $p < 0.05$ ). Barcha kompetensiyalar bo'yicha t-qiyamatlar 3.76–4.48 oralig'ida bo'lib, bu farq tasodifiy emasligini anglatadi. Ayniqsa, 3-jadval.

kasbiy maqsadni belgilash kompetensiyasida  $t = 4.48$  ( $p = 0.000$ ) natija qayd etildi.

Bu holat amaliyot va stajirovkalar talabalarning kasbiy yo'nalishini aniqlash va professional o'zini identifikatsiya qilish jarayoniga kuchli ta'sir ko'rsatishini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Korrelatsiya tahlili (Amaliyot ishtirok darajasi va kompetensiya indeksi)

№	Ko'rsatkichlar	r (Pirson)
1	Amaliyot ishtirok darajasi - Kompetensiya indeksi	0.62

Korrelatsiya koeffitsienti  $r = 0.62$ , ya'ni o'rtadan yuqori darajadagi ijobiy bog'liqlik mavjud. Bu amaliyotda faol ishtirok kasbiy kompetensiyalar o'sishi bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Pirson korrelatsiya koeffitsienti natijalari amaliyot ishtirok darajasi va umumiy kompetensiya indeksi o'rtasida ijobiy va o'rtadan yuqori darajadagi bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi ( $r = 0.62$ ). Bu ko'rsatkich amaliyotda faol ishtirok etgan talabalarning kasbiy kompetensiyalari yuqori bo'lish ehtimoli katta ekanini anglatadi.  $r = 0.62$  natija amaliyotning kasbiy rivojlanish jarayonida muhim omil ekanini tasdiqlaydi va uning ta'siri tizimli xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi.

Olingan natijalar amaliyot va stajirovkalar oliy ta'lim tizimida kasbiy kompetensiyalar shakllantirishning samarali mexanizmi ekanini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi. Eksperimental guruhda barcha ko'rsatkichlar bo'yicha barqaror va statistik ahamiyatli o'sish qayd etildi.

Tadqiqot natijalari xalqaro empirik tadqiqotlar bilan muvofiq holda, amaliyot ta'lim jarayonida nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash, talabalarning mehnat bozoriga moslashuvchanligini oshirish hamda ularning professional raqobatbardoshligini kuchaytirishda strategik ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

**Xulosa va takliflar.** Mazkur tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalarida amaliy mashg'ulot va stajirovkalar talabalar kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda samarali pedagogik mexanizm ekanini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Qiyosiy tahlil natijalari eksperimental guruhda muammo yechish, qaror qabul qilish, jamoada

ishlash, kommunikatsiya va kasbiy maqsadni belgilash kabi asosiy kompetensiyalar nazorat guruhiga nisbatan statistik jihatdan ahamiyatli darajada yuqori ekanini ko'rsatadi ( $p < 0,05$ ). Korrelatsiya tahlili amaliyot ishtirok darajasi va umumiy kompetensiya indeksi o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjudligini ( $r = 0,62$ ) tasdiqladi. Bu natija amaliy faoliyat talabalarning kasbiy rivojlanish jarayonida muhim omil sifatida namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Sifat tahlili ham miqdoriy natijalarni qo'llab-quvvatlab, amaliyot talabalarda kasbiy ishonch, professional identifikatsiya va mehnat bozoriga tayyorgarlik darajasini oshirishini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari amaliyot va nazariya uyg'unligi kompetensiyaviy yondashuvni samarali amalga oshirishning asosiy sharti ekanini ko'rsatadi. Amaliy mashg'ulotlar nafaqat texnik bilimlarni mustahkamlaydi, balki transversal (umumkasbiy) ko'nikmalar kommunikatsiya, jamoada ishlash, strategik fikrlash va tarmoq qurish qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. Shu munosabat bilan, oliy ta'lim tizimida amaliy mashg'ulotlar ulushini oshirish, ishlab chiqarish bilan integratsiyani kuchaytirish, dual ta'lim elementlarini keng joriy etish hamda stajirovka dasturlarini tizimli tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari amaliy mashg'ulotlar talabalarni mehnat bozoriga raqobatbardosh, mustaqil fikrlaydigan va kasbiy muammolarni samarali hal qila oladigan mutaxassis sifatida tayyorlashda strategik ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi.

#### ADABIYOTLAR

1. Inside Higher Ed. Talabalar amaliy mashg'ulotni ish bozoriga tayyorlik uchun "majburiy" deb baholaydi: Inside Higher Ed survey natijalari – Washington, DC: Inside Higher Ed, 2025. – URL: <https://www.insidehighered.com>
2. National Association of Colleges and Employers (NACE). Gen Z larda kariyera bosqichida tajribalar ta'siri: NACE Career Preparedness Report NACE, 2025. – URL: <https://www.naceweb.org>
3. Otermans, P. Impact of Internships on Career Skills Development: Student Perspectives // Journal of Higher Education Experience. – 2025.
4. Avleeva, E., et al. Soft skills development through internships: Evidence from a large-scale survey // International Journal of Workplace Learning. – 2025.
5. Center for Engaged Learning, Elon University. National survey on internships and career readiness – NC: Elon University Publications, 2026.
6. Experiential Learning and Career Outcomes: Meta-Analysis // Public Health Education Review. – Bethesda, MD: PMC (NIH). – URL: <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc>
7. Internships as a career launch strategy: Analyses and trends // BestColleges.com Career Insights. – 2025. – URL: <https://www.bestcolleges.com>